



O'QITUVCHILARDA ILMIY IZLANISH KOMPETENSIYALARINI SHAKLLANTIRISHNING NAZARIY ASOSLARI

Rustamova Manzura Mirkamalovna

Ilmiy rahbar: PhD (pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori)

Mirkomilova Zebo Murodjon qizi

Toshkent Kimyo xalqaro universiteti 1-bosqich magistri

Annotatsiya: Mazkur maqolada bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida ilmiy izlanish kompetensiyasini shakllantirishning dolzarbligi, mazmuni va ahamiyati yoritilgan. Zamonaviy ta'lim tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar sharoitida o'qituvchining tadqiqotchi-pedagog sifatidagi roli tahlil qilinadi. Ilmiy izlanish ko'nikmalarining tuzilmasi, ularning boshlang'ich ta'lim sifatini oshirishdagi o'rni asoslab beriladi. Shuningdek, pedagogik amaliyotda o'qituvchilarning ilmiy-tadqiqot faoliyatida uchrayotgan muammolar aniqlanib, ularni bartaraf etishga qaratilgan samarali yo'nalishlar va shart-sharoitlar taklif etiladi.

Kalit so'zlar: boshlang'ich ta'lim, ilmiy izlanish kompetensiyasi, tadqiqot ko'nikmalari, tadqiqotchi-pedagog, muammoli fikrlash, innovatsion ta'lim

Bugungi zamonaviy ta'lim tizimida olib borilayotgan islohotlar, ayniqsa, boshlang'ich ta'lim sifatini oshirishga qaratilgan yangilanishlar, bo'lajak o'qituvchilardan nafaqat mustahkam bilim va ko'nikmalarga, balki ilmiy izlanish, tahlil qilish va yangilik yarata olish salohiyatiga ega bo'lishni talab etmoqda. Chunki zamonaviy o'qituvchi o'z faoliyatida mavjud pedagogik muammolarga ilmiy yondashuv asosida yechim topa oladigan, mustaqil fikrlaydigan va o'quvchilarda ham izlanish madaniyatini shakllantira oladigan mutaxassis bo'lishi zarur.

Ta'lim tizimida o'qituvchining roli faqat bilim beruvchi emas, balki tadqiqotchi-pedagog sifatida ham yuksak ahamiyat kasb etmoqda. O'zbekiston Respublikasida amalga oshirilayotgan ta'lim islohotlari, xususan, "Ilm-fan, innovatsiyalar va ta'lim integratsiyasini chuqurlashtirish konsepsiyasi"¹⁶ hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Ta'lim sifatini oshirish va ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorlarida¹⁷ o'qituvchilarning ilmiy izlanish ko'nikmalarini rivojlantirish ustuvor yo'nalish sifatida belgilangan. O'zbekiston Respublikasining Ta'lim to'g'risidagi Qonunining 4-moddasida: "Ta'lim oluvchilarda mustaqil fikrlash, ijodiy va ilmiy izlanish ko'nikmalarini shakllantirish ta'limning asosiy vazifalaridan biridir"-deya e'tirof etilgan.¹⁸ Oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasining 2-bandida esa "Ta'lim tizimida ilmiy-tadqiqot faoliyatini rivojlantirish va yoshlarni izlanishga yo'naltirish ustuvor vazifa etib belgilandi."¹⁹

¹⁶ O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi Vazirligi. Ilm-fan, innovatsiyalar va ta'lim integratsiyasini chuqurlashtirish Konsepsiyasi. Toshkent. 2023.

¹⁷ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti. Ilmiy-metodik va tadqiqot ishlari sifatini oshirish orqali ta'lim tizimini kompleks rivojlantirishni jadallashtirish bo'yicha chora-tadbirlar to'g'risida. № PQ-128 Qaror. 2023, 20 aprel.

¹⁸ O'zbekiston Respublikasi. (2020). Ta'lim to'g'risidagi Qonun (O'RQ-637), 23-sentabr. 4-modda.

¹⁹ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti. (2019). Oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risidagi PQ-5847-son Qaror. 2-band.



Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining ilmiy izlanish ko'nikmalarini shakllantirish jarayoni oliy pedagogik ta'limning muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Bu jarayon o'qituvchi shaxsining intellektual salohiyatini rivojlantirish, tahliliy fikrlashni shakllantirish va ilmiy asosda qaror qabul qilish malakasini mustahkamlashga xizmat qiladi. Shuningdek, ilmiy izlanish ko'nikmalariga ega bo'lgan o'qituvchi o'quvchilarning qiziqishini rag'batlantiruvchi, ularni tadqiqotga yo'naltiruvchi ta'lim muhiti yaratishga qodir bo'ladi.

Boshlang'ich sinf o'qituvchilari uchun bu masala ayniqsa dolzarb, chunki ular ta'limning ilk bosqichida o'quvchilarda ijodkorlik, kuzatuvchanlik va muammoli fikrlashni shakllantirishda bevosita mas'uldirlar. Ammo pedagogik amaliy kuzatuvlar natijasida ko'plab o'qituvchilar ilmiy tadqiqot olib borish, ma'lumotlarni tahlil qilish, ilmiy xulosa chiqarish ko'nikmalariga yetarlicha ega emasligi aniqlanmoqda. O'tkazilgan diagnostik so'rovnoma shuni ko'rsatadiki, boshlang'ich sinf o'qituvchilarining katta qismi ilmiy maqola yozish, pedagogik tajribani tahlil qilish, tajriba-sinov ishlarini loyihalash bo'yicha qiyinchiliklarga duch keladi. Xalqaro ta'lim tadqiqotlari (masalan, TALIS kabi o'qituvchilar faoliyatini o'rganishga qaratilgan tadqiqotlar) natijalarida ta'kidlanishicha, o'qituvchining tadqiqotchilik kompetensiyasi past bo'lgan taqdirda, dars jarayonida muammoli vaziyatlar kam yaratiladi, o'quvchilarning mustaqil fikrlashi yetarli rivojlanmaydi, ijodkorlikni rag'batlantirish sustlashadi.

Ilmiy izlanish ko'nikmasi – bu o'qituvchining pedagogik muammolarni mustaqil aniqlash, ularni ilmiy asosda tahlil etish, ma'lumot to'plash, tahlil qilish va xulosa chiqarish qobiliyatidir.²⁰

Boshlang'ich sinf o'qituvchisi uchun tadqiqot ko'nikmalari quyidagi komponentlarni o'z ichiga olishini ma'lum qiladi: muammoni aniqlash va ilmiy savolni shakllantirish, ma'lumot yig'ish va tahlil qilish, eksperimental faoliyat yoki pedagogik kuzatuv o'tkazish, natijalarni tahlil qilish va xulosa chiqarish, refleksiya va natijalarni amaliyotga joriy etish kerakligini ta'kidlaydi²¹.

1. Tadqiqot muhitini yaratish — o'qituvchilarni kichik ilmiy loyihalar, dars tahlili, kuzatuvlar va refleksiyaga jalb etish;

2. Metodik qo'llab-quvvatlash — tadqiqot metodologiyasi, statistik tahlil, yozma hisobot tayyorlash bo'yicha treninglar o'tkazish;

3. Mentorlik tizimi — tajribali tadqiqotchilar tomonidan yosh o'qituvchilarni qo'llab-quvvatlash;

4. Raqamli vositalardan foydalanish — so'rovnoma, tahlil va natijalarni vizualizatsiya qilishda raqamli platformalardan foydalanish.

Xulosa

Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida ilmiy izlanish kompetensiyasini shakllantirish zamonaviy ta'lim tizimining muhim va strategik vazifalaridan biridir. Ilmiy izlanish ko'nikmalariga ega bo'lgan pedagog nafaqat ta'lim jarayonini samarali tashkil eta oladi, balki o'z faoliyatini doimiy tahlil qilish, pedagogik muammolarga ilmiy asoslangan

²⁰ Moriarty, B. *Research Skills for Teachers: From Research Question to Research Design*. Routledge. 2018.

²¹ Willison, J. *Research Thinking for Responsive Teaching: Research Skill Development with In-service and Preservice Educators*. Springer. (2024).



yechimlar topish va innovatsion yondashuvlarni joriy etish imkoniyatiga ega bo'ladi. Bunday o'qituvchi o'quvchilarda mustaqil fikrlash, ijodkorlik va tadqiqotga qiziqishni shakllantirish orqali boshlang'ich ta'lim sifatini oshirishga xizmat qiladi.

Shu bois oliy pedagogik ta'lim jarayonida ilmiy izlanish kompetensiyasini rivojlantirishga yo'naltirilgan metodik, tashkiliy va texnologik shart-sharoitlarni takomillashtirish muhim ahamiyat kasb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi. "Ilm-fan, innovatsiyalar va ta'lim integratsiyasini chuqurlashtirish konsepsiyasi". — Toshkent, 2023.

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori, "Ilmiy-metodik va tadqiqot ishlari sifatini oshirish orqali ta'lim tizimini kompleks rivojlantirishni jadallashtirish bo'yicha chora-tadbirlar to'g'risida ". Qaror № PQ-128, 2023 yil 20 aprel.

3. O'zbekiston Respublikasi. "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun (O'RQ-637), 2020 yil 23 sentabr, 4-modda.

4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori, "Oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida ". Qaror PQ-5847, 2019 yil, 2-band.

5. Moriarty B. Research skills for teachers: From research question to research design. London: Routledge, 2018.

6. Willison J. Research thinking for responsive teaching: Research skill development with in-service and preservice educators. Cham: Springer, 2024.